

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi,

Namangan davlat universiteti

tayanch doktoranti

oydinakhoshimova@gmail.com

LINGVORANGLI OLAM MANZARASI MILLIY LISONIY MANZARANING TASHKIL ETUVCHISI SIFATIDA

***Annotatsiya.** Maqolada ingliz va o'zbek tillarida lingvorangli olam manzarasini tashkil etuvchi birliklarning qiyosiy-chog'ishtirma tahlili hamda uning milliy lisoniy manzarada tutgan o'rnii haqida fikr yuritilgan. Jahon tilshunosligida olamning turli manzaralari hamda bu manzaralar orasida alohida o'ringa ega bo'lgan olamning lisoniy, milliy va rangli manzarasi turli tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilganligi ko'rib chiqilgan. Qolaversa, mazkur maqolada rang nomlari va ularning ma'nolari, ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan rang ifodalovchi birliklarning turli millatlarga xos bo'lgan olam milliy manzarasidagi ifodasi, mazkur millatning o'z tushunchalari, rang ifodolovchi birliklari, xususan, o'zbek va ingliz tillarida qiyoslash muammosi haqida munosabat bildirilgan. Olam ranglari va ularning insonlar ongidagi ifodasi til birliklari vositasida ifodalanib, olamning lingvorangli manzarasini hosil qiladi. Demak, insonlarning olam haqidagi tasavvurlari turli tillarda turlicha aks etadi. Lingvorangli olam manzarasi esa olam lisoniy manzarasi bilan birga shakllanadi deyish mumkin*

***Kalit so'zlar:** olam manzarasi, madaniyat, urf-odat, millat, jamiyat, olamning milliy tasviri, ranglar, og'zaki ifodalash, milliy mentalitet.*

Хошимова Ойдина Шухрат кизи,

Базовый докторант

Наманганского государственного университета

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ МИР КАК ФОРМИРУЮЩИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКОВОГО МИРА

***Аннотация.** В статье обсуждается сравнительно-сопоставительный*

анализ лексем , составляющих лингвокультурную картину мира в английском и узбекском языках, а также их место в национальной языковой картине мира. Рассмотрено, что в мировой лингвистике различные картины мира, включая языковую, национальную и цветовую, которые занимают особое место среди них, были широко изучены различными исследователями. Более того, в данной статье обсуждаются названия цветов и их значения, выражение цветовых понятий в английском и узбекском языках, отражение их в национальной картине мира, характерной для разных народов, а также проблема сопоставления цветообозначающих единиц в узбекском и английском языках. Цвета мира и их отражение в сознании людей выражаются через языковые единицы, формируя лингвокультурную картину мира. Следовательно, представления людей о мире по-разному отражаются в различных языках. Можно сказать, что лингвокультурная картина мира формируется вместе с языковой картиной мира.

Ключевые слова: пейзаж, культура, традиция, нация, общество, национальный образ мира, цвета, речевое выражение, национальный менталитет.

Khoshimova Oydina Shuxrat qizi,

Base doctorate of

Namangan State University

MULTICOLORED WORLDVIEW AS A COMPONENT OF THE FORMATION OF THE NATIONAL LINGUISTIC LANDSCAPE

Abstract. *This article presents a comparative analysis of units that form the linguistic color worldview in English and Uzbek languages, and their place in the national linguistic worldview. It explores how different worldviews, particularly the linguistic, national, and color worldviews, which hold a special significance, have been widely studied by various researchers in global linguistics. Additionally, the article addresses the names of colors and their meanings, the representation of color-denoting units used in English and Uzbek, and their expression in the national worldview of different cultures. It also discusses the comparison of color-*

denoting units in Uzbek and English, highlighting the unique concepts and color expressions of each nation. The colors of the world and their representation in human consciousness are conveyed through linguistic units, forming the linguistic color worldview. Therefore, it can be said that people's perceptions of the world are reflected differently in different languages, and the linguistic color worldview develops alongside the linguistic worldview.

Key words: *landscape, culture, tradition, nation, society, national image of the world, colors, verbal expression, national mentality.*

KIRISH

Tilshunoslikda olam lisoniy manzarasi deb nomlanayotgan tushuncha insonning dunyo haqidagi tasavvurlaridan iborat. Bu manzara insonlar ongida kognitiv, estetik va axloqiy komponentlar yordamida namoyon bo'ladi. M.Xaydeggerning ta'kidlashicha, olam manzarasi deganda olam tasvirlangan manzarani emas, balki olamning o'zini manzara sifatida tushunish kerak. Olamning falsafiy, diniy, badiiy, mifologik, ilmiy, poetik, kognitiv, konseptual, lisoniy, maxsus va shu kabi manzaralarda namoyon bo'lishi fanda e'tirof etilgan va ularning inson ongida aks etishida tilning ahamiyatli o'rni borligi ta'kidlangan [1]. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunga kelib, dunyo tilshunosligida, til, madaniyat va ong o'rtasidagi munosabatlarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Turli tillarda mavjud rang ifodolovchi birliklarning milliy xususiyatlarini o'rganish – madaniyatlararo muloqot jarayonini samarali bo'lishi hamda til tashuvchilari ongidagi OLM (olamning lisoniy manzarasi) va lingvorangli manzaraning o'ziga xos jihatlatini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. G.Axmedovaga ko'ra ham turli tillardagi ranglarni taqqoslash ingliz, o'zbek, rus madaniyatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tillarning rang konnotatsiyasi ba'zan mos keladi, ba'zida esa farq qiladi [2].

Turli tizimli tillardagi rang nomlari va ularning xususiyatlari qator tilshunoslarning e'tiborini tortmoqda. Biroq shunday b'lishiga qaramay, bu kabi birliklarning, xususan ranglarning olam lingvorangli manzarasida va lug'atalarda mos kelishi muammosi ko'plab tillarda hali yetarli tadqiq qilinmagan.

O.A.Kornilovning ta'kidlashicha, "Dunyo tasviri" tushunchasidan turli fanlar: falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, gnoseologiya, kognitiv fan, tilshunoslik vakillari juda faol foydalanmoqda" [3].

Shuningdek, olamning lingvorangli manzarasi turli fanlarning, jumladan, gumanitar fanlarning ham o'rganish obyekti ekanligi isbotlangan. Olam lisoniy manzarasining bir qismi sifatida olamning lingvorangli manzarasi asosiy tushuncha va tasavvurlarni tashuvchi sifatida boshqa manzaralardan ajralib turadi. Shunday qilib, olamning lingvorangli manzarasi turli rangdagi atamalar orqali, qaysiki: leksema, ibora, idioma va boshqa og'zaki vositalar shaklida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslikda milliy mentalitet va lingvistik dunyoqarashning o'rganilishi o'ziga xos ilmiy yondashuv va asoslarga ega. O'zbek tilshunos olimlar A. Razzaqov, N. Shayislamov, G. Ahmedovalarning ilmiy ishlari o'zbek tili milliy mentalitetining mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilining lingvokulturologik jihatlari, milliy o'ziga xosligi, etnomadaniy belgilarining til tizimida aks etishi alohida o'rganiladi. Ayniqsa, A. Razzaqovning (2019) tadqiqotlarida o'zbek xalqining lingvistik dunyoqarashi va madaniy an'analarining tilga ta'siri chuqur tahlil qilingan. N. Shayislamov (2021) va G. Ahmedova (2022) o'z tadqiqotlarida o'zbek tilida milliy mentalitetning ko'rinishlari, xususan, ranglar va ularning ma'nosi, shuningdek, metafora va majoz vositalari orqali milliy dunyoqarash ifodalanganligiga e'tibor qaratadi. Ular til birliklarida o'zbek xalqining tarixiy va madaniy xotirasi qanday aks etishini ko'rsatib, milliy o'ziga xoslikni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qiladilar.

Bundan tashqari, xorijiy mashhur olimlar Tropina T.N., V.A. Maslova, O.A. Kornilov, A.P. Vasilevich va A. Vejbitskaya kabi tilshunoslar tomonidan lingvokulturologiya yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar global miqyosda milliy mentalitetni o'rganishning ilmiy nazariyasini boyitadi. V.A. Maslovaning (2001) asarlari lingvokulturologiya nazariyasining rivojlanishida muhim qadam bo'lgan bo'lsa, A. Vejbitskaya (2007) tomonidan o'rta tashlangan semantik universalialar g'oyasi milliy mentalitetni til orqali tushunish va qiyoslashning yangi usullarini taklif etadi. Shuningdek, O.A. Kornilov (2011) lingvistikada olam manzarasi tushunchasini nazariy jihatdan ko'rib chiqib, rang atamalarining

lingvistik va madaniy tasavvurlarga qo'shgan hissasini ilmiy baholagan.

O'zbek va xorijiy tilshunoslarning ilmiy ishlari lingvokulturologik tahlil vositasida milliy mentalitetni anglash va tasvirlashda o'zaro bog'liq bo'lib, ular orqali o'zbek tilining boyligi va o'ziga xosligi yanada chuqurroq o'rganildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ranglarning lingvistik va milliy-madaniy tavsif asosida lisoniy birliklarning rang ifodalashdagi xususiyatlarini ochib berish vazifasi qo'yildi va bu boradagi ilmiy qarashlar muhokama qilindi. O'zbek va ingliz xalqiga xos bo'lgan madaniyatida ranglarning ijtimoiy-milliy xususiyatlari qiyoslandi.

O'zbek tilidagi rang tushunchalari va milliy mentalitet bilan bog'liq lingvistik birliklarning mazmun va funksiyalarini o'rganishda lingvokulturologik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv ranglar va ularning lingvokulturologik kontekstda ifodalanishini chuqur anglash imkonini berdi. Bundan tashqari, qiyosiy metod orqali o'zbek va ingliz tilidagi lingvokulturologik birliklarni qiyoslash amalga oshirildi. Lingvorangli olam lisoniy manzarasining milliy manzaraining tashkil etuvchisi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishda xalq og'zaki ijodidagi maqollar va iboralarga tayanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

XI asr boshiga kelib lingvokulturologiya fani muhim bir yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu fan dunyo tilshunosligida mustaqil ravishda ajratilgan yo'nalish deb e'tirof etilsa ham, biroq bu fanning nazariy va metodologik asoslari hali boshlang'ich bosqichda. Professor V.A.Maslova ta'rifiga ko'ra, "lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan va xalq madaniyatining tilda aks etgan va mustahkamlanib borayotgan ko'rinishlarini o'rganadigan fandır" [4; 15-bet].

Nursulton Shayxislamov fikriga ko'ra lingvokulturologiya bu "tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro bog'liqliklaridan paydo bo'lgan fan bo'lib, u xalq madaniyatining paydo bo'lishini tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi" deb ta'kidlaydi va bu ikki yo'nalishning "sistemalashgan tarmog'i

bo'lib o'zining mustaqil maqsad, vazifa, metod va tadqiqot obyektiga ega bo'lgan fandır [5]" deb hisoblaydi.

Demak, lingvokulturologiya – bu olamning til manzarasini tadqiq qiladigan fandır. Bu fanning tadqiqotini olib borilishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, ushbu yo'nalish til va madaniyat o'rtasidagi tushunchalarni asosli ravishda ta'riflab beradi.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda birinchi marta Leo Vaysgerber tomonidan kiritilgan "olamning lingvistik manzarasi" tushunchasi mavjud. Dunyoning sodda tasvirining muhim qismi tildagi rang atamalar tizimidir. Rang barcha vizual ma'lumotlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limotlarda. sifatiga, soniga, qamrov darajasiga (ko'lamiga), mazmun-mohiyatiga qarab Olam tushunchasi juda ko'p turlarga, ko'rinishlarga, shakllarga ajratilgan holda o'rganiladi. Shuningdek, Olam tushunchasining "**dunyo**", "**tabiat**", "**jahon**", "**ummon**" kabi bir qancha ma'nodosh(sinonim)

"**adashlari**" borki ularni qo'llaganda ham qaysidir ma'noda Olamni nazarda tutiladi [6; 6-bet].

Olam so'zining lug'aviy ma'nosi : **Olam** ([lotincha](#): *universus*) atamasi ostida [fizik](#) mavjud bo'lmish jamiki narsalar: [fazo](#), [vaqt](#), [materiya](#), [energiya](#), [inersiya](#), [fizik qonunlar](#) va [konstantalar](#) majmui tushuniladi. Kundalik hayotda „olam“ so'zi [Yer](#) sayyorasini anglatishi mumkin [7].

O.A. Kornilov "olamning lingvorangli milliy manzarasi – bu dunyoni alohida shaxs tomonidan ham, butun bir xalq tomonidan ham ikki kodli, ikki tomonlama tasvirlashning ikkita rejasidan biri", deb qayd etadi" [3; 81-bet] Demak, olamning lingvorangli milliy manzarasi nafaqat milliy xarakter xususiyatlari, balki milliy mentalitet va til xususiyatlarining ham cheksiz manbasi sifatida aks etadi deb aytsak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Biz shuni yoshligimizdan bilamizki jamiyki bizni orab turgan olam hilma xil ranglardan tashkil topgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, inson ko'zi 2 milliongacha ranglarni ajrata oladi, ammo tabiatda ulardan ham ko'plari mavjud. [8; 216-bet], va inson umri davomida atrofidagi olam bilan bog'liq o'zlashtiradigan axborotlarning

qariyb 80 foizini ranglar vositasida anglaydi [9;35-40 betlar]. Manbalarda keltirilishicha, zamonaviy rus tilida 130 atrofida, ingliz tilida 154, nemis tilida 120 atrofida rang nomi mavjud [10; 1-14 betlar]. O‘zbek tilida faol qo‘llanadigan rang nomlari 50 taga ham yetmaydi. Vaholangki, "O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 130 ga yaqin rang nomi keltirilgan bo‘lib, ularning aksariyati bugungi avlodga deyarli tushunarli emas[11; 211-bet].

Rang so‘zining lug‘aviy ma‘nosi: **Rang** (rus.*цвem*, ingl.*colour*, frans.*couleur*, turk. *Renk*) – moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug‘likning muayyan ko‘rish tuyg‘usini hosil qilish xossasi[7].

Tilda juda ko‘p turli xil ranglarning nomlanishi mavjud. Ammo shu 6 ta rang *qizil/red*, *sariq/yellow*, *oq / white*, *qora/ black*, *ko‘k/ blue*, *yashil/green* **asosiy ranglar hisoblanadi**. Ular boshqa ranglarni aralashtirilmagan holda pigment rang deb nomlanadi Biz atrofimizdagi jamiki narsalarni ta'mini, rangini, shaklini va tuzulishi qandayligini tafakkurimiz bilan anglab yetamiz, lekin bu tushuncha va "rang" leksemalari yoki semantikasi har xil millatlarda farqli ravishda o‘zining miliy olam tasviriga ega. A. Abduazimov to‘g‘ri ta’riflaganidek, til - bu nafaqat aloqa vositasi, balki insonning ma’naviy olamini, madaniyatini, tarixini o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir. Shu sababli til orqali xalqning olamga bo‘lgan qarashi, hayotga munosabati aks etadi[12; 34-bet].

O‘zbek xalq maqollarida ham bu o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin.

“Ko‘ngli qoraning yuzi ham qora”[13; 66-bet], “dili qoraning qilmishi qiyiqlik”, “dili qora – tili qora” [13; 54-bet] shu kabi maqollarda qora so‘zi rang ma’nosida emas, balki konnotativ ma’noni ifodalaydi, ya’ni ichi qora inson – yomon niyyatli inson deyilgan, unday insonlarni hamma yomon ko‘radi va yuziga ham namoyon bo‘ladi, hattoki amallarida ham bu aks etgan bo‘ladi deyilmoqda.

“Daraxt bir joyda ko‘karar” [13; 308-bet] – bu maqolda odam taqdiriga yozilgan joyga ko‘nikishi va o‘sha yerga sabr qilib shukronalik bilan mehr bersa kein kamol topishi va yetuklikka erisha olishi haqida aytilmoqda. Agar shu naqlga amal qilsak bir joyda o‘sib qadr qimmat topamiz. Bu maqol bilan xalqimiz daraxt

ekinzorlar haqida emas, balki insoniyat haqida chuqur ma'no borligini nasihat qilishmoqda.

“Bog‘ yashil bo‘lsa, bog‘bon yaxshi bo‘ladi”. Bu maqolning ma'nosi: Odamning qilgan ishlaridan u qanday insonligini bilib olsa bo‘ladi va mehnat qilib yam-yashil bog‘ yaratgan bog‘bonning amallari ham go‘zal bo‘lishini bilib olishimiz mumkinligi ifodalangan.

Chog‘ishtirish uchun ingliz maqollaridan ham misol keltiramiz, ularning ham o‘ziga xos mazmun-mohiyati bor.

“Once in a blue moon” – juda kamdan-kam hollarda yoki hechqachon degan ma'no bildiradi. Bu inglizcha ibora bo‘lib “bir marta ko‘k oyda” deb so‘zma so‘z tarjima qilinadi. Ammo bu maqolning mazmuni bunday ma'no bermaydi. Agar o‘zbek xalq maqollari bilan solishtiradigan bo‘lsak *“Tuyani dumi yerga tekkanda”* degan maqol bilan ma'nosi bir hil, ya'ni ro'yobga chiqmaydigan, amalga oshmaydigan ish, quruq va'da ekanligini bildiruvchi ibora hisoblanadi.

“Feel blue” buni ham so‘zma so‘z o‘zbek tiliga tarjima qilinsa “o‘zimni ko‘k his qilyapman” yoki “moviy tuyg‘u” deb tushuniladi, ammo ushbu iborada ham ko‘k rang ishlatilgan va uning negativ ma'nosi bor. Ingliz tilida bu naql – qayg‘u yoki ohangdorlikni tasvirlaydigan idiomasi hisoblanadi. Bu his-tuyg‘ularni yetkazishning she'riy va qisqacha usuli: qayg‘uli. *I feel blue* – deb gapda ishlatiladi – bu kimdir hafa va g‘amgin ekanligini bildiradi.

“Tickled pink” – (pushti qitiqli) bu idiomaning ma'nosi xursanchilik, zavqlanish va baxtni his qilish. Bu atama ingliz millatida insonni qitiqlaganda yuzi kulishdan pushti rangga aylanishini ishora qiladi va bu bag‘oyatda xursand bo‘lmoqlikni bildiradi.

“Black sheep” – bu atama odatda salbiy ma'noda ishlatiladi. Tarjimada: "qora qo‘y". Ma'nosiga kelsak, bu fraza inglizlarda oiladagi munosabatga tegishli bo‘lib, oilasiga uyat yoki sharmandalik keltiradigan va yomon ish qilgan inson haqida gapirish hisoblanadi. *He is the black sheep of the family*. U oilaning qora qo‘yi – degan ma'no emas balki ushbu oilaning a'zosi bu oilaga mos emas boshqa guruh a'zolaridan farq qiladigan, ayniqsa oila a'zolariga to‘g‘ri kelmaydigan ish

qiladigan insonga nisbatan qo‘llanadigan ibora. Boshqa millat vakillari bu iborani tushunib olishlari sal murakkab ammo ingliz madaniyatida yashovchi insonlarning ongiga bu naql singib ketgan.

XULOSA

Ranglar, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, xalqning dunyoqarashini, hissiyotlarini va ruhiyatini ifodalovchi kuchli vosita sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu tahlil orqali o‘zbek tilidagi ranglarning milliy lisoniy manzaraga ta'siri, shuningdek, ranglarning ko‘plab metaforik va simbolik ma'nolari oydinlashtirildi. Maqola, shuningdek, ranglarning xalq hayotidagi o‘rni, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va lingvokulturologik jihatlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar natijalarini taqdim etdi. Vejbitskaya to‘g‘ri qayd etganidek, milliy manzara, bir xalqning o'ziga xos ranglar, tasvirlar va symbolikalar orqali dunyoni qanday anglashini ifodalaydi[14].

Xulosadan anglash mumkinki, ranglar milliy lisoniy manzara va mentalitetni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu o‘rinda, maqoladagi lingvokulturologik tahlil orqali ranglarning o‘zbek va ingliz tilidagi o‘rni, ularning madaniy meros va milliy o‘ziga xoslikni ifodalashdagi ahamiyatini yoritadi. Bu, o‘zbek tilining boyligi va rangli dunyoqarashini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бу ҳақда қаранг: Сирожиддинов Ш. Олам манзараси тушунчасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №2. – Б.80-86.
2. Ahmedova G. Yu. Rang nomlari va ularning o‘quv lug‘atlarida yoritilishi tahlillari. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601 887-b
3. Kornilov O.A. Dunyoning lingvistik rasmlari milliy mentalitetlarning hosilalari sifatida. – M., 2011. – 350 b.
4. Маслова В. А. Лингвокультуроология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений – М.: Академия, 2001. – 208 с.
5. Shayxislamov N. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021
6. Razzaqov A. Olam haqida xususiy falsafa. 47b. Namangan 2019
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Olam>

8. Василевич А. П. Цвет и названия цвета в русском языке. Москва: URSS, 2005.-216 с.
9. Tropina T.N. Color meanings in the teaching of color science // THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FINE. № 1. 2018. С.35-40
10. Воробьев Г. Г. Информатика цвета // НТИ. Серия 2: Информационные процессы и системы. 1998. № 12. С.1-14
11. Axmedova Y. G. Rang leksemasining turli ma'nolariga izoh berilishi masalalari 2023 /211 b
12. A. Abduazimov, "Lingvokulturologiya asoslari", 2016, 34-bet
13. O'zbek xalq maqollari 2005 Tuzuvchilar Mirzayev T. Musoqulov A. Sarimsoqov B. Toshkent. Sharq / 496 b.
14. Vejbitskaya, A. (2007). Madaniy Semiotika va Milliy Manzara. Madaniyat va Identitet: Etnografik Perspektivalar.